



METAFORALARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR

Allaberganova Shodiya Yarashboy qizi
National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulug'bek Faculty of Foreign Philology
4th year student of Translation Theories
allaberganovashodiya57@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada metaforalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon duch keladigan muammolar haqida qisqacha malumot berib o'tilgan. Metafora bu yozuvchining "quroli" hisoblanib, nafaqat insonlarning tasavvuriga balki ularning ruhiy va hissiy holatiga ham katta tasir ko'rsatadi. Tarjimonning vazifasi esa metaforaning ma'no va hissiy holatini to'g'ri saqlab, uning asl chuqur ma'nosini boshqa tilda ifodalashdan iborat.

Kalit so'zlar: metafora, stilistika, tilshunoslik, tilshunos, adabiyotshunos, tarjimon, madaniyat;

Аннотация: В данной статье кратко описываются проблемы, с которыми сталкиваются переводчики при переводе метафор. Метафора — это инструмент писателя, который оказывает большое влияние на воображение людей, а также на их психическое и эмоциональное состояние. Задача переводчика и метафоры — правильно сохранить смысл и эмоциональное состояние метафоры, а также выразить ее изначальный глубокий смысл на другом языке.

Ключевые слова: метафора, стилистика, лингвистика, лингвист, переводчик, библиограф, культура;

Annotation: This article briefly describes the problems that translators face when translating metaphors. Metaphor is a writer's tool, which has a great impact on people's imagination, as well as on the mental and emotional state. The task of the



translator and the metaphor is to correctly preserve the meaning and emotional state of the metaphor, and to express its original deep meaning in another language.

Keywords: metaphor, stylistic, linguistic, linguist, translator, bibliographer, culture;

Stilistika sohasining metafora bo'limiga qiziqish bir necha yillardan beri dunyo tilshunosligining diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, boy metaforik jumalardan foydalanib ijod qiluvchi turkiy xalq yozuvchilarining asarlari va dostonlari nafaqat o'zbek tilshunoshlarining, balki, chet ellik tilshunos olimlar va tarjimonlarining ham diqqat-etiborini o'ziga qaratti.

Asosiy qism. Metaforalar nafaqat ma'no, balki tuyg'u va tasavvur kuchini ham taqdim etadi, shuning uchun ular adabiyotda ayniqsa muhimdir¹. Chunki metaforalar ma'lum bir millatning qadriyatlari, urf-odatlari va tafakkurida kelib chiqqan holatda paydo bo'ladi. Buni xuddi o'zidey tarjima qilish esa tarjimondan katta mahorat talab qiladi, va shu bilan birga bir nechta qiyinchiliklar ham tug'diradi. Misol uchun to'g'ri keladigan ekvivalent topilmasligi, o'quvchiga tushunarli izoh keltira olmasligi va chuqur qadriyat va urf-odatlarni o'zida mujassam etgan konteksni ifodalay olishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Bu muammolarga mutloq yechim topishda adabiyotshunos va tarjimashunos Peter Nyumarking klassifikatsiyasini keltirib o'tishimiz mumkin. U tarjimon duch keladigan muammolarni to'rt xil yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aytadi²:

Birinchi uslub madaniyatga moslashtirish uslubi hisoblanadi. Ba'zi metaforalar ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan tushunchalarga asoslanadi.

¹ I.A.Richards. The Philosophy of Rhetoric. – Oxford University Press, 1936. – p.57.

² P.Newmark. Approaches to translation. - Prentice Hall, 1981. – p.17.



Tarjimon bu metaforani boshqa madaniyatda ham tushunarli bo'lishi uchun o'zgartirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “a fish out of water” (“suvdan chiqqan baliq”) metaforasi, o'zbek tiliga “suvsiz baliq” deb tarjima qilinishi mumkin, ammo bu tushuncha boshqa bir metaforaga o'zgartirilishi ham mumkin (masalan, “o'z joyini topolmaydigan odam”)³.

Ikkinchi uslub to'g'ridan-to'g'ri tarjima uslubi hisoblanadi. Agar metafora xalqaro bo'lsa va bir xil ma'noni boshqa tilda ham to'liq anglash mumkin bo'lsa, tarjimon uni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishi mumkin. Masalan, inglizcha “time is money” (“vaqt — pul”) metaforasini o'zbek tiliga shundayligicha tarjima qilish mumkin.

Uchinchi uslub yangi metafora yaratish uslubi hisoblanadi. Ba'zan tarjimon asl metaforani to'g'ridan-to'g'ri tarjima qila olmaydi. Bunday holatda, tarjimon yangi, o'xshash ma'no va hissiyotga ega bo'lgan metafora yaratishi mumkin. Misol uchun, inglizcha “a sea of troubles” (“muammolar dengizi”) metaforasini o'zbek tilida “muammolar tog'u tekisligi” kabi bir tarzda ifodalash mumkin. Dengiz mavjud bo'lmagan davlatlar uchun, o'z muammolarini dengizga o'xshatish orqali hech qanday tassavvur va his-tuyg'ularga ega bo'lishmaydi.

To'rtinchi uslub izoh berish uslubi hisoblanadi. Agar metafora juda murakkab yoki kontekstga bog'liq bo'lsa, tarjimon uni izohlash orqali ma'noni yetkazib berishi mumkin. Bu usul o'quvchiga metaforaning asl ma'no va hissiy ta'sirini anglashda yordam beradi. Misol uchun “Sepsiz kelin- epsiz kelin”, bu maqoldagi metafora madaniy realiya so'z hisoblangani va uning ekvivalenti bo'lmaganligi uchun tarjimon bu so'zni izohlash orqali (it is kinda dowry which is a payment, such as land property, monetary, cattle or any commercial asset that is paid by the bride's

³ George Lakoff and Mark Johnson, *Metaphors We Live by*. – the University of Chicago press, 1980. – p.23.



family to the groom or his family at the time of marriage) o'quvchida konsept paydo qilishimiz mumkin⁴.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjimon metaforalarni tarjima qilishda faqat ma'noni saqlamasligi, balki hissiy holat va madaniy kontekstni ham inobatga olishi zarur. Metaforani to'g'ri tarjima qilish — bu nafaqat til, balki madaniyat va odamlarning fikrlash tarzini ham o'rganishni talab etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Nyumarkning klassifikatsiyasi esa bu talabga mutlaq javob bera oladi va tarjimon bu klassifikatsiyadan foydalanish orqali tarjima jarayonini amalga oshirsa o'zi ko'zlagan maqsadiga tez va samarali tarzda erishishi oladi. Bu maqolani o'qib chiqish orqali tarjimon nafaqat nazariya, balki, o'z qadriyatlarida va madaniyatida doimiy ravishda foydalaniladigan misollar orqali mavzuni yanada yaxshiroq tushunib, muammoga yanada tezroq yechim topishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Richards. The Philosophy of Rhetoric. – Oxford University Press, 1936. – p.57.
2. P.Newmark. Approaches to translation. - Prentice Hall, 1981. – p.17.
3. George Lakoff and Mark Johnson, Metaphors We Live by. – the University of Chicago press, 1980. – p.23.
4. Bessarabova N.D. Metaphor as a linguistic phenomenon. Meaning and sense of the word: artistic speech, journalism. Ed. D.E. Rosenthal. – M.: Moscow State University, 1987. – 200 p.
5. L.David Ritchie. Metaphor. Key topics in semantic and pragmatic. – Cambridge University press, 2013. – 230 p.

⁴ P.Newmark. Approaches to translation. - Prentice Hall, 1981 . – p.17.